
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIGA QAMRALMAGAN 6 YOSHLI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLOV GURUHLARI FAOLIYATINI BOSHLADI.

Toshloq tumanida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdagi "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 132-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida tumandagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 2022-2023 o'quv yilida maktabgacha ta'limga qamralmagan 6 yoshli 900 nafar bolalarni maktab ta'limiga bepul tayyorlov guruhleri joriy yil sentyabr oyidan faoliyatini boshladi.

"Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlov" guruh tarbiyalanuvchilari ilk va maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablariga muvofiq "Ilm yo'li" o'quv dasturi asosida maktab ta'limiga bepul tayyorlanadi hamda Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan bepul o'quv jihozlar va qo'llanmalar bilan to'liq ta'minlanadi.

Hurmatli ota-onalar!

Sizlardan maktabgacha ta'limga qamrab olinmagan 6-7 yoshli farzandingizni tumandagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilgan "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlov" guruhlariga berishingizni so'raymiz. Tayyorlov guruhleri davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida hamda tashkilot hududidagi maktablarda tashkil etilgan.

Tuman maktabgacha ta'lim bo'limi

2022-09-20 15:12:03